

qanday kasb egasi bo'lish to'g'risida ko'p o'ylaydi. Mamlakatimizda esa turli kasblarni egallash uchun barcha sharoit yaratilgan. Faqat bu imkoniyatlardan oqilona foydalanish, hayotda qo'llash zarur.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N.A, Mullaxmedov R.G. –Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. – Toshkent:2007
2. Tolipov O',Q , Sharipov SH,S, Xalimatov P,Q, -Darstan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'qubshilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. –Toshkent:2004
3. Avazboyev A.I. - „ Kasb-hunarga yo'naltirish “
4. N.M Abdumalikovna - O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH VA ZAMONAVIY KASBLAR HAQIDA MA'LUMOT BERISH. 2022
5. www.istedod.uz
6. www.pedagog.uz
7. www.ziyonet.uz

O'ZBEKISTON FOND BOZORIDAGI MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Kayumova Shodiya Sobir qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank va Moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: *Ushbu tezisda O'zbekiston fond bozorlari muammolari, ularni rivojlantirish va uning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, fond birjasi va uni rivojlantirishda jaxon tajribasiga suyanish haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *jaxon fond bozori, kapital bozor, emitent, broker, fond birjasi, bozor iqtisodiyoti, moliya tizimi, moliya bozori, qimmatli qog'oz, pul*

Abstract: *This thesis analyzes the problems of Uzbekistan's stock markets, their development and their importance in the market economy. Information is also provided about the stock exchange and reliance on world experience in its development.*

Key words: *global stock market, capital market, issuer, broker, stock exchange, market economy, financial system, financial market, securities, money*

KIRISH

Oxirgi 5 yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Shu jumladan 2022-yil 28-yanvarda Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli farmoni "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari " tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Taraqqiyot strategiyasining 3-yo'nalishi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" yo'nalishida alohida maqsad sifatida fond bozorini rivojlantirishga ham e'tibor qaratib o'tilgan.

Asosiy qism: Bilamizki, jaxonda qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu fond bozori hisoblanadi.

Fond bozorining ustunligi shundaki, u orqali xorijiy investorlar o'z davlatini tark etmasdan turib, boshqa mamlakatlardagi biznes subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritish imkoniyatiga egadirlar.

Ammo bizning davlatimizda fond bozoriga nisbatan ishonchsizlik bilan qaraladi chunki, birinchidan, mamlakatimizda fond birjalari orqali bu amaliyotni amalga oshirish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, xorijiy va milliy investorlarning masofadan turib brokerlik hisob raqamlari ochish hamda fond bozori orqali aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya kiritish imkoniyatlari afsuski hanuz taqdim etilmagan. Ikkinchidan, yurtimizda ayni vaqtda iqtisodiyotda davlat ishtiroki yuqoriligi ham emitentlarning fond bozorida faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Uchinchidan esa mamlakatimizda banklarga

boshqa subyektlarning aksiyalarini harid qilish taqiqlangan. Fuqarolarning davlat obligatsiyalarini sotib olishi va sotishida ham cheklovlar mavjud.

Shu muammolarni bartaraf etish maqsadida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan jahon davlatlari tajribasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2019 yildagi 5630-sonli Farmoni bilan mustaqil davlat organi – Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tuzulib, uning asosiy vazifalari etib qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, tartibga solish va korporativ boshqaruv sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish belgilangan.

Buning uchun, qimmatli qog'ozlarni chiqarish va muomilada bo'lishini, investitsiyalarni keng jalb etish, korporativ boshqaruvni rivojlantirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha kompleks chora tadbirlarni ko'zda tutuvchi kapital bozori rivojlanishining uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish taqozo etiladi. Mazkur strategiyada fond bozorini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish, uni tartibga soluvchi qonun va qonun osti hujjatlarini bozori rivojlanayotgan mamlakatlar talablariga muvofiqlashtirish, tarkibiga brokerlar, pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, banklar kiruvchi moliya bozorining eko-tizimini yaratish, aholining bo'sh turgan mablag'larini fond bozoriga jalb qilishning jahon tajribasida qo'llanilgan va qo'llanilib kelayotgan samarali institutlarni shakllantirish nazarda tutilishi kerak albatta.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak davlatimiz fond bozoridagi muammolarni bartaraf etish va rivojlantirish uchun avvalo investorlar bazasini kengaytirish va diversifikatsiya qilish, moliyaviy savodxonlikni yaxshilash orqali qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabni oshirish, emitentlar sonini ko'paytirish va yangi moliyaviy instrumentlar orqali qimmatli qog'ozlar taklifini kengaytirish, qonunchilik va nazorat tizimini takomillashtirish, kapital bozori infratuzilmasini yaxshilash va va kapital bozorini muvofiqlashtiruvchi organning institutsional salohiyatini mustahkamlash maqsadga munofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Татьянников В. Фондовый рынок: новый этап развития? // Рынок ценных бумаг. – 2003. - № 6
2. Sh.M.Mirziyoyev. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.07.02.2017 PF-494
3. <https://dutyfree58.ru/uz/kak-rabotaet-fondovyi-rynok-mehanizm-rabotyrynka-akkii>
4. <https://www.spot.uz/oz/2018/08/08/stock/>"Uzbekistonda fond bozorida jismoniy shaxslar ishtiroki haqida nima deyish mumkin?"

REFERENCES:

1. Tatyannikov V. Stock market: a new stage of development? // Rynok tsennykh bumag. - 2003. - No. 6
2. Sh.M. Mirziyoyev. Decree "On the strategy of actions for the further development of the Republic of Uzbekistan". 07.02.2017 PF-494
3. <https://dutyfree58.ru/uz/kak-rabotaet-fondovyi-rynok-mehanizm-rabotyrynka-akcii>
4. <https://www.spot.uz/oz/2018/08/08/stock/>"What can be said about the participation of individuals in the stock market in Uzbekistan?"